Qabul qilindi: 19-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 21-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 23-noyabr 2026-yil

SUD MAJLISI BAYONNOMASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Alijonov Abdukarim Xayrullo o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Tezisda sud majlisi bayonnomasini imzolash muddatlarining hukm sifati va sud mustaqilligiga ta’siri o‘rganilgan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq bayonnoma hukm chiqarilgandan keyin imzolanishi sudyaning maslahatxonada ishlarni muhokama qilish jarayonida sud tergovi dalillaridan to‘liq foydalanishini murakkablashtiradi, shuningdek, JPKning 457-moddasida nazarda tutilgan masalalarni ko‘rib chiqishda dalillarni tekshirish va baholash samaradorligini pasaytiradi. Muammo yuzasidan JPKning 426-moddasi 10-qismini bayonnomani sud hukm yoki ajrim chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) kirgungacha imzolash majburiyatini belgilovchi normativ taklif ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat protsessi, sud majlisi bayonnomasi, alohida xona, dalillar ishonchliligi, qonunchilikni takomillashtirish.

Аннотация. В данной работе исследуется влияние сроков подписания протокола судебного заседания на качество вынесения приговора и независимость суда. Согласно действующему законодательству, подписание протокола после вынесения приговора затрудняет полноценное использование судьей доказательств судебного расследования при обсуждении дела в консультационном зале, а также снижает эффективность изучения и оценки доказательств при рассмотрении вопросов, предусмотренных статьей 457 Уголовно-процессуального кодекса. Ввиду этой проблемы было выдвинуто нормативное предложение о внесении изменений в часть 10 статьи 426 Уголовно-процессуального кодекса с целью установления обязанности подписывать протокол до того, как суд войдет в отдельное помещение (консультационный зал) для вынесения приговора или решения.Ключевые слова:

уголовное судопроизводство, протокол судебного заседания, отдельное помещение, достоверность доказательств, совершенствование законодательства.

Abstract. This thesis examines the impact of the timelines for signing the court hearing record on the quality of the verdict and judicial independence. Under current legislation, the fact that the record is signed after the verdict is rendered complicates the judge’s ability to fully utilize the evidence presented during the judicial investigation while deliberating in the deliberation room; it also diminishes the effectiveness of examining and evaluating evidence when addressing the issues stipulated in Article 457 of the Code of Criminal Procedure (CCP). To address this issue, a legislative proposal is put forward to amend Part 10 of Article 426 of the CCP, mandating that the record be signed before the court retires to the deliberation room to render a verdict or ruling.

Keywords: criminal procedure, court hearing record, deliberation room, reliability of evidence, improvement of legislation.

Sud majlisi bayonnomasi—sud muhokamasi jarayonini o‘zida aks ettiradi, unda sud tergovida o‘rganilgan, hukmga asos bo‘lgan dalillar aks etadi. Shu bilan birga, bayonnomaning mazmuni hukmning qaror qismiga zid bo‘lmasligi kerak. JPKning 455-moddasida belgilanganidek, sudning hukmi faqatgina sud majlisida tekshirilgan dalillar bilangina asoslantiriladi. Bundan kelib chiqadiki, sud tergovida o‘rganilmagan dalillar hukmdagi sud xulosalariga asos qilib olinmasligi kerak.

Bundan tashqari, hukm sud majlisi bayonnomasida o‘z aksini topgan dalillarga asoslangan bo‘lishi shart. Demak, barcha dalillarning ro‘yxati va ularning mazmuni yagona bo‘lgan hujjat—sud majlisi bayonnomasida aks etadi. E’tiborli jihati shundaki, amaldagi qonunchiligimizda bayonnoma hukm chiqqan kunning ertasidan, murakkab ishlar bo‘yicha esa uch sutkadan kechiktirmay mas’ul shaxslar tomonidan imzolangan bo‘lishi kerak (JPKning 426-moddasi). Ushbu norma mazmunidan anglashiladki, sud maslahatxona (alohida xona)ga kirib ketayotgan paytda sud majlisi bayonnomasi hali shakllantirilmagan bo‘ladi.

Bizningcha, mazkur tartib hukmning asosliligi va adolatliligini xavf ostiga qo‘yadi va sudyaning mustaqilligini cheklab, faqat uni tergov organing dalillariga ta’yanishiga olib

keladi. Chunki, sudya alohida xonada, sud esa maslahatxonada hukm chiqarish vaqtida sud hal qiladigan masalalarni birma bir muhokama qilar ekan, sud tergovining yagona dalil manbai bo‘lgan bayonnoma uning qo‘lida mavjud bo‘lmaydi. Bunday hollarda sud o‘zi uchun belgilab qo‘ygan yoki xotirasida qolgan ma’lumotlarga asoslanib qaror qabul qilishga majbur bo‘ladi. Ayniqsa, ko‘p tomli jinoyat ishlari jarayonni yanada murakkablashtiradi, natijada sud dastlabki tergov yoki surishtiruv materiallariga tayanishiga to‘g‘ri keladi. JPKning 457-moddasida nazarda tutilgan masalalarni ko‘rib chiqish jarayonida sud majlisi bayonnomasi tayyor bo‘maganligi sababli sudda to‘plangan dalillarni tekshirish imkonidan ham mahrum bo‘ladi, dalillarni ishonchliligi, maqbulligi, aloqadorligi, yetarliligi mezonlari bo‘yicha baholash imkoni ham cheklanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan muammoli holatlar oxir oqibatda hukmning sifatida ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Mazkur tartib uzoq yillar davomida tarixan shakllangan bo‘lib, bugungi kunda odil sudlovni ta’minlashga qaratilgan maqsadlarga javob bermaydi. Ammo, bu masala sud amaliyotida bahsli bo‘lib, ayrim protsessualist olimlar, xususan A.V.Bunina fikricha, sud majlisi bayonnomasi sud maslahatxona (alohida xona)ga kirgunga qadar tayyor bo‘lishi kerakligi, taraflar u bilan tanishib chiqish imkoniga ega bo‘lishi va unga o‘zgartish, qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha iltimosnomalar berish huquqiga ega bo‘lishi zarur[1]. Bu esa holatlar keyinchalik hukm tuzish jarayonida inobatga olinib, uning mazmuniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Shunday xulosaga A.V.Dulov va V.V.Pecherskiylar ham kelishgan. Mazkur olimlar nafaqat sud majlisi bayonnomasini sud muhokamasi tugamasidan tayyorlanishi, balki unga beriladigan mulohazalarni ham sud muhokamasi yakunida hal etish kerakligini ta’kidlashadi[2]. Ular bu masalada sud majlisi bayonnomasini rasmiylashtirish bilan bog‘liq ishlarni tezlashtirish maqsadida sudlarda audioyozuvlar bilan ishni tashkil etuvchi stenografist lavozimi joriy etilishini taklif etishadi.

Ammo, yuqoridagi fikrlarga qarama-qarshi ravishda sud majlisi kotibining ish yuklamasidan kelib, bir guruh protsessualist olimlar sud majlisi bayonnomasini hukm e’lon

[1]Бунина А.В. Приговор суда как акт правосудия. Его свойства. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Челябинск – 2005.
[2]Дулов А. В., Печерський В. В. Проблемні аспекти формування протоколу та вироку у кримінальному судочинстві. ББК 67Я43 Н-34 (2012)page=14

qilingandan keyin shakllantirish kerakligini ta’kidlashadi. Mazkur muammo haqiqatdan ham sud amaliyotida muammoli hisoblanadi. O.Ya.Boyayev ushbu fikrlarga qo‘shilmagan holda maslahatxona (alohida xona)da sud eng asosiy dalil manbasiga tayana olmaganligi sababli chiqarilgan hukmni qonuniy, asosli deb bo‘lmasligini ta’kidlaydi[3]. Biroq, boshqalardan farqli ravishda ushbu olim sud masalahatxonaga kirgunga qadar bayonnomaning oxirgi shakli emas, faqat sud tergoviga oid qismi tayyor bo‘lishi kerakligini taklif etgan. Ulardan tashqari, A.A.Vasyayev va M.V.Palchikovalar hukm chiqarish vaqtiga kelib sud majlisi bayonnomasining shakllantirilmasligi—absurd holat ekanligini ta’kidlab, sud hukm chiqarish jarayonida aynan unga asos bo‘luvchi dalillarni bayonnomadan olishini, sudda bunday imkoniyat bo‘lmasdan turib hukm chiqarilishi—noqonuniy ish ekanligini to‘g‘risida xulosaga kelishgan. Eng asosiy manbaga ega bo‘lmasdan turib, masalahatxona (alohida xona)ga kirgan sud o‘z xotirasi, o‘zi uchun yozib olgan ko‘chirmalariga tayanib hukm chiqarishga majbur bo‘ladi[4].

Haqiqatdan ham bayonnomaning hukm e’lon qilingandan keyin shakllantirilishi uning protsessual huquqiy ahamiyatini yo‘qotadi. Yuqori instansiya sudlarida ishni qayta ko‘rish davomida ham bayonnoma dalil manbasi sifatida tan olinishi uchun uning asosida butun ishni ko‘rish va hal etish jarayonida qonunchilikka rioya etilganligiga aniqlik kiritilishi kerak. Biroq, bayonnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlar bilan sud majlisida real yuz bergan holatlarning bir biriga muvofiq emasligi bugungi kunda sud amaliyotida odatiy holga aylanib qolgan. Buni yaxshi bilgan holda sudlar ham maslahatxonada sud majlisi bayonnomasidan foydalanmaydilar, bunga ehtiyoj sezmaydilar va hukm chiqarish jarayonida ham ushbu hujjat sudyalar uchun ahamiyatsiz bo‘lib qolgan.

JPKning 426-moddasida sud maslahatxonaga kirgunga qadar bayonnoma tayyor bo‘lishi kerakligi haqidagi normaning qat’iy belgilanmaganligi bayonomaga xos bo‘lgan eng asosiy xususiyat—yuz bergan hodisalarning o‘zida aks ettirishini yo‘q qiladi. Sud majlisi bayonnomasi nafaqat sudning harakatlari qonuniyligini yuqori instansiya tomonidan

[3]Баев О. Я., Баев М. О. Протокол судебного заседания как зеркало осуществленного правосудия по уголовному делу //Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Право. – 2008.
[4]Васяев, А. А. Протокол судебного заседания - доказательство? / А. А. Васяев, М. В. Пальчикова // Современное право. – 2010. – № 4. – С. 116-119.

tekshirish vositasi, balki hukm chiqarish paytida sud uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni aks ettirish vositasi hamdir. Ayniqsa, uzoq oylab davom etadigan murakkab ishlarda uning ahamiyati yuqori bo‘ladi. Sudyalar maslahatxonada o‘zlarining shaxsiy qaydlari, xotiralariga emas, bayonnomada ishonchli va to‘liq aks etgan dalillar majmuiga asoslanib qaror qabul qilishlari kerak bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, JPKning 426-moddasi 10-qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“Sud majlisining bayonnomasi sud hukm chiqarish yoki ajrim chiqarish uchun darhol alohida xonaga (maslahatxonaga) kirgunga qadar imzolanishi kerak.”

Yuqoridagi men bildirgan taklif bo‘yicha TDYU Jinoyat protsessual huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori(Phd) S.T.Alishayev o‘zining “Hukm odil sudlovning yakuniy hujjati:nazariy va amaliy tahlil”deb nomlangan dissertatsiyasida ham mazkur taklif bo‘yicha o‘z taklif va qarashlarini bildirgan[5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бунина А.В. Приговор суда как акт правосудия. Его свойства. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Челябинск – 2005.

2. Дулов А. В., Печерський В. В. Проблемні аспекти формування протоколу та вироку у кримінальному судочинстві. ББК 67Я43 Н-34 (2012). – С. 14.

3. Баев О. Я., Баев М. О. Протокол судебного заседания как зеркало осуществленного правосудия по уголовному делу //Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Право. – 2008.

4. Васяев, А. А. Протокол судебного заседания - доказательство? / А. А. Васяев, М. В. Пальчикова // Современное право. – 2010. – № 4. – С. 116-119.

5. S.T.Alishayev “Hukm odil sudlovning yakuniy hujjati: nazariy va amaliy tahlil” Toshkent 2025

[5]S.T.Alishayev “Hukm odil sudlovning yakuniy hujjati:nazariy va amaliy tahlil” Toshkent 2025